



REKREATION RESURLARNI BAHOLASH VA TURISTIK MARSHRUTLARNI XARITALASH: ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

18-aprel 2025-yil



Buxoro-2025

Uds: 258.228.415.447.35

KBK: 75.81

“Rekreatsion resurslarni baholash va turistik marshrutlarni xaritalash: ilmiy-uslubiy yondashuvlar”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plami. 2025-yil 18-aprel: - Buxoro :

1. Qo`yidagi tarkibdan iborat dasturiy qo`mita

- | | | | |
|----|------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, a`zo; |
| 4. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a`zo; |
| 5. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 6. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |

2. Qo`yidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo`mita

- | | | | |
|-----|------------------|---|---|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, rais muovini; |
| 3. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a`zo; |
| 4. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 5. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 6. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 7. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Z.S.Nurov | – | Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 10. | O.X.Azimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 11. | M.S.Sayfullayeva | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 12. | N.R.Omonova | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

ISBN: 978-9910-743-12-2

	SYSTEMS.....	102
Raupov G'ayrat Soyibovich	MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING KONSEPTUAL MODEL.....	107
Mamaraimova Zaxro Axmat qizi	MUQADDAS SHAHAR MEROSINING GLOBAL E'TIROFI.....	109
Qilichov Muhriddin	BUXORO SHAHRI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN TURIZMDA BARQAROR FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI: GIS ASOSIDA.....	113
4-SHO'BA. TURIZM INFRATUZILMASI, MARKETING VA IQTISODIY SAMARADORLIK		
Dilshod Shoimardonqulovich Yavmutov	THE FORMATION OF ECOTOURISM INFRASTRUCTURE AND ITS ROLE IN REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT: THE CASE OF BUKHARA REGION.....	120
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Istamxo'ja Olimovich Davronov	NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN BUXORO MEHMONXONALARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI.....	124
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Kamol Yuldashev Sharifovich	JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN OVQATLANISH MASKANLARIDA YARATILGAN SHART- SHAROITLAR TAHLILI (BUXORO MISOLIDA)	128
Xodjayev Anvar Rasulovich	FRANCHAYZING ORQALI TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH: INFRATUZILMA, BRENDING VA MIJOZLAR TAJRIBASI.....	132
Akhmatova Mohigul Ergash qizi	APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF TRANSPORT SERVICES IN TOURISM.....	137
Abdullayev Abror Bozarboyevich	MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	142
Shoyimardonqulova Shahlo Dilshodovna	THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN THE BUKHARA REGION AND ITS IMPACT ON REGIONAL ECONOMIC EFFICIENCY.....	146
Gulmira Shavkatovna Isokova	MICE TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEKISTONDAGI TURIZM INFRATUZILMASINING ROLI: ZAMONAVIY MEHMONXONA, KONGRESS VA TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	149
Kurbanova Mohinur Khabib kizi	ZIYARAT TOURISM IN THE DIGITAL AGE: TRANSFORMATIONS, STATISTICS, FUTURE PROSPECTS.....	155
Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi	TARIXIY-MADANIY TURIZMNING AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	163
Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li	KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	166

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN BUXORO MEHMONXONALARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI

Abror Turobovich Jurayev

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

Nutfillo Salimovich Ibragimov

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası professori

Istamxo'ja Olimovich Davronov

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

e-mail: a.t.juraev@buxdu.uz,

n.s.ibragimov@buxdu.uz,

i.o.davronov@buxdu.uz

Annotatsiya: mazkur maqolada Buxoro shahridagi mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida mehmonxona infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifati, bu kategoriyadagi mehmonlarga yaratilgan shart-sharoitlar hamda inklyuziv turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashabbuslar o'rganildi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan mehmonlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi va mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Natijalar Buxorodagi mehmonxona xizmatlarini inklyuzivlik tamoyillari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, inklyuziv turizm, mehmonxona infratuzilmasi, xizmat sifati, mehmonxona biznesi, qulayliklar, barqaror rivojlanish.

KIRISH QISMI

So'nggi yillarda global miqyosda inklyuziv turizm konsepsiyasiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining taxminan 15 foizi turli darajadagi nogironlikka ega bo'lib, bu taxminan 1 milliard kishini tashkil etadi (WHO, 2023). Bunday shaxslarning turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki mehmonxona biznesining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi (UNWTO, 2022).

O'zbekistonning tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo'lgan ko'hna Buxoro shahri har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qiladi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 1,7 million kishiga yetgan, shundan 10-12 foizi turli xildagi nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil qilishi mumkin (Statistika qo'mitasi, 2023). Biroq, mahalliy mehmonxonalar infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish tizimi hali ham to'liq inklyuziv emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro mehmonxonalarining atigi 35-40 foizida to'liq ravishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan sharoitlar mavjud.

Mehmonxona sektorida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay muhit yaratish xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim (ISO 21902:2021). Xususan, panduslar, liftlar, maxsus sanitariya-gigiyena xonalari, ovozli va vizual yo'riqnomalar kabi elementlar inklyuziv xizmat ko'rsatishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi (Darcy & Buhalis, 2021).

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlov natijalariga asosan ajratiladigan grantlar hisobidan **Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasi va "InclUZ" mobil ilovasini yaratish** grant loyihasi amalga oshirildi. Unda asosan Buxoro shahrining eski shahrining nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mos turistik infratuzilmasi o'rganildi. Shu sababli, ushbu maqola Buxoro mehmonxonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari mehmonxona xizmatlarini yanada inklyuziv va qulay qilishga, turizm sohasida barqaror rivojlanishga hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot O'zbekiston turizm sohasida inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida bir nechta metodologik yondashuvlarga asoslanib tahlil qilindi. Tadqiqot empirik va nazariy yondashuvlar asosida olib borildi. Bunda miqdoriy (statistik ma'lumotlar tahlili) va sifatli (ekspert so'rovnomalari va intervyular) usullar qo'llanildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining mehmonxona sektoriga oid rasmiy statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan xalqaro inklyuziv turizm standartlari va tavsiyalari o'rganildi. Ilmiy maqolalar va akademik tadqiqotlar bazasidan Scopus, Google Scholar va ResearchGate kabi platformalardan inklyuziv turizm va mehmonxona infratuzilmasiga oid ilmiy ishlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- Mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun mavjud sharoitlarning bugungi holati aniqlanadi.
- Xalqaro standartlar bilan solishtirish natijasida mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.
- Buxoro mehmonxonalari uchun inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mehmonxonalarda qulay sharoitlar yaratish xalqaro turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, mehmonxona infratuzilmasini inklyuzivlik tamoyillariga mos ravishda takomillashtirmoqda.

AQShda inklyuziv turizmning huquqiy asosi Americans with Disabilities Act (ADA, 1990) qonuni bo'lib, unga binoan mehmonxonalar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus moslashtirilgan sharoitlarni ta'minlashi shart. Bunga maxsus xonalar, panduslar, liftlar hamda audiovizual qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar kiradi (U.S. Department of Justice, 2021). Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, AQShdagi mehmonxonalarning 90% dan ortig'i ADA standartlariga javob berib, nogiron sayyohlar uchun yuqori sifatli xizmat ko'rsatadi (Darcy & Buhalis, 2021).

Yevropada inklyuziv turizmni rivojlantirishga European Network for Accessible Tourism (ENAT) tashkiloti katta hissa qo'shib, mehmonxona infratuzilmasini moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Buhalis va Darcy (2011) tadqiqotlariga ko'ra, Skandinaviya davlatlari hamda Germaniyada mehmonxonalar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq moslashtirilgan bo'lib, xizmatlar xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatsiyadan o'tadi. Biroq, Janubiy Yevropa mamlakatlarida bu boradagi muammolar hanz dolzarb bo'lib qolmoqda (Buhalis & Darcy, 2011).

Osiyo mintaqasida esa Yaponiya inklyuziv turizm bo'yicha yetakchi davlatlardan biri sanaladi. ISO 21902:2021 xalqaro standart talablari Yaponiya mehmonxona biznesida keng tatbiq etilgan bo'lib, Tokio Olimpiadasi (2020) oldidan mehmonxonalar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'liq moslashtirilgan (United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific, 2022). Takayama va boshqalar (2020) tadqiqotida Yaponiya mehmonxonalarning 80% dan ortig'i nogiron sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratganligi qayd etilgan.

Avstraliyada ham inklyuziv turizm siyosati rivojlangan bo'lib, mehmonxonalarning 95% ga yaqini nogiron sayyohlar ehtiyojlariga moslashtirilgan. Packer va boshqalar (2018) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus xizmatlarni joriy etgan mehmonxonalar o'z daromadlarini 15-20% ga oshirishga muvaffaq bo'lgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sanoati barcha insonlar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham teng imkoniyatlar yaratishi zarur. So'nggi yillarda inklyuziv turizm bo'yicha tadqiqotlar soni oshib bormoqda va bu sohaga oid xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili nogironligi bo'lgan shaxslarning mehmonxona xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlov natijalariga asosan **“Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasi va “InclUz” mobil ilovasini yaratish”** loyihasi doirasida Buxoroning qadimiy eski shahar qismida nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasi alohida sertifikatga hamda inklyuziv turizm xizmatlarini taklif etish uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo'lgan joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish shahobchalari, turistik ob'ektlar, sanitar-gigienik shaxobchan (xususan, smart sanitar-gigienik shoxobcha)lar, turistlar uchun tashkil etilgan ko'ngil ochish maskanlari, joylashgan joyi va taklif etiladigan xizmatlarini ko'rsatib beruvchi yagona mobil ilovasi yaratiladi. Ushbu ilova yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun turistik xizmatlarni taklif etish orqali xizmatlar diversifikatsiyasiga erishadi. Platformadan foydalanuvchilar soni kundan kunga oshib borishi natijasida veb sahifada turli ko'rinishdagi reklama qabul qilish, imkoniyati cheklangan insonlar uchun turli xizmatlarni taklif qilish kabi raqamli marketing usullari orqali tijoratlashtirish imkoniyatlari kengayib boradi. Shu bilan birga loyiha orqali Buxoroda mehmonxona infratuzilmasini o'rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Buxoro shahridagi mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun shart-sharoitlar yetarli darajada rivojlanmagan. O'tkazilgan tahlillar asosida mehmonxonalarda infratuzilmasining inklyuzivlik darajasi xalqaro standartlar va xorijiy tajriba bilan solishtirilganda sezilarli kamchiliklarga ega ekani aniqlandi.

Tadqiqot (loyiha) doirasida Buxorodagi 50 ta mehmonxona vakillari hamda nogironligi bo'lgan 70 nafar sayyoh ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma savollari mehmonxonalarning mavjud sharoitlari, xizmat ko'rsatish sifati va qulaylik darajasiga qaratildi. Mehmonxona menejerlari hamda nogironligi bo'lgan sayyohlar bilan chuqurlashtirilgan intervyular o'tkazilib, mehmonxona infratuzilmasi, xodimlarning inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha tayyorgarligi va mavjud muammolar aniqlangan. Buxoro shahridagi tanlab olingan mehmonxonalarda inklyuziv xizmatlar va infratuzilma holati bevosita joyida o'rganildi. Xususan, panduslar, liftlar, maxsus sanitariya-gigiyena xonalari, braille yozuvi, shuningdek, eshitish va ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun yordamchi vositalarning mavjudligi baholandi.



1-diagramma. Buxoro shahridagi mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyat yaratilganlik darajasi (muallif ishlanmasi)

Shuningdek to'g'ridan-to'g'ri Buxoro shahridagi 50 ta mehmonxona joyida o'rganilib tahlil qilindi, ularning 65% qismida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan xonalar mavjud bo'lsa, qolgan 35% qismida bunday imkoniyatlar qisman sharoitlar yaratib berilgan.

Mehmonxonalarining faqat 55% qismida panduslar va liftlar yetarli darajada qulay bo'lsa, qolganlarida bu talablar bajarilmagan.

Xalqaro tajribada inklyuziv turizm bo'yicha rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkichlar ancha yuqori. Masalan, AQShda 92% mehmonxonalar ADA (Americans with Disabilities Act) standartlariga to'liq mos keladi (U.S. Department of Justice, 2021), Yevropada esa 75-88% mehmonxonalar nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun moslashtirilgan (Buhalis & Darcy, 2011). Bu esa O'zbekistonda ushbu yo'nalishda qator islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

So'rovnoma natijasida ma'lum bo'lishicha, mehmonxonalarining 65% qismida xodimlar nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus o'qitilgan. Bu esa xizmat ko'rsatish yuqori darajada emasligi va mehmonxona menejerlarining ushbu masalaga yetarli e'tibor qaratmayotganini ko'rsatadi. Holbuki, Yaponiya va Avstraliyada xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchi xodimlarning 80-90% qismi maxsus tayyorgarlikdan o'tadi va bu xizmat sifati oshishiga olib keladi (Takayama, Nakamura, & Yamada, 2020; Packer, Small, & Darcy, 2018).

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki mehmonxonalar mijozlarga taqdim etayotgan qulayliklar orasida Braille yozuvi bilan ta'minlangan yo'riqnomalar, audiovizual yordamchi texnologiyalar va eshitish qobiliyati past bo'lgan mehmonlar uchun maxsus qurilmalar yetishmaydi. Bu esa xalqaro standartlarga mos kelmaydi (ISO 21902:2021).

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan mehmonxona infratuzilmasi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy jihatdan ham foydalidir. UNWTO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, inklyuziv turizmga sarmoya kiritgan mehmonxonalar mijozlar sonini oshirishi va daromadini 14-18% ga ko'paytirishi mumkin. Avstraliya tajribasi shuni ko'rsatadiki, nogiron sayyohlar uchun moslashtirilgan mehmonxonalar raqobatbardoshlik darajasi yuqoriligi sababli ko'proq xalqaro sayyohlarni jalb qiladi (Packer et al., 2018).

Buxoro turizm bo'yicha O'zbekistonning asosiy markazlaridan biri bo'lishiga qaramay, xorijiy nogiron sayyohlar uchun yetarli sharoitlar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, so'ngi yillarda Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning taxminan 10 % nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Agar mehmonxona infratuzilmasi rivojlantirilsa, bu ko'rsatkich ortib, turizm sohasi daromadi sezilarli oshishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mehmonxona infratuzilmasini moslashtirish barqaror va inklyuziv turizmni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Buxoro shahridagi mehmonxonalar inklyuziv xizmatlar va infratuzilmani yaxshilash yo'lida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, hali to'liq moslashtirilgan ekotizim shakllanmagan.

Mehmonxonalarda nogiron sayyohlar uchun zarur sharoitlar, jumladan, panduslar, liftlar, maxsus sanitariya-gigiyena xonalari, braille yozuvi, audiovizual yordamchi texnologiyalar mavjudligi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayrim mehmonxonalarda bu talablar qisman bajarilgan, biroq xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va inklyuziv muhitni shakllantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Buxorodagi mehmonxonalar infratuzilmasi xalqaro standartlarga mos emas – aksariyat mehmonxonalarda panduslar, liftlar, maxsus sanitariya-gigiyena xonalari mavjud emas.
2. Xodimlarning inklyuziv turizm bo'yicha tayyorgarlik darajasi o'rta darajada – xizmat ko'rsatish sifati pastligi aniqlangan.
3. Inklyuziv turizm mehmonxonalarining iqtisodiy foydasini oshirishi mumkin – xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv turizm strategiyasini qo'llagan mehmonxonalar mijozlar sonini oshirish orqali o'z daromadlarini ko'paytiradi.

Shu sababli, quyidagi tavsiyalar beriladi:

- Mehmonxonalar inklyuziv infratuzilmani rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan foydalanishi kerak. Xususan, ISO 21902:2021 standartlariga mos keluvchi o'zgarishlar kiritilishi lozim.
- Xodimlarni nogiron sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus o'qitish dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

- Hukumat va mehmonxona biznesi rahbarlari inklyuziv turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalar qabul qilishi zarur.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Buxoro mehmonxonalari xalqaro talab va standartlarga moslashib, nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun yanada qulay muhit yaratish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Buhalis, D., & Darcy, S. (2011). *Accessible tourism: Concepts and issues*. Channel View Publications.
2. Darcy, S., & Buhalis, D. (2021). *Accessible tourism: Concepts and issues*. Channel View Publications.
3. ISO 21902:2021. (2021). *Tourism and related services — Accessible tourism for all — Requirements and recommendations*. International Organization for Standardization. Retrieved from <https://www.iso.org/standard/72774.html>
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2023). *Disability and health*. Retrieved from <https://www.who.int>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). *Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni*. Retrieved from <https://www.stat.uz>
6. Packer, T. L., Small, J., & Darcy, S. (2018). *Tourism and disability: A review of international best practices*. *Annals of Tourism Research*, 72, 1-14.
7. Takayama, H., Nakamura, S., & Yamada, K. (2020). *Universal design in Japan's hospitality industry: A post-Olympics analysis*. *Journal of Asian Tourism Studies*, 10(2), 33-47.
8. U.S. Department of Justice. (2021). *Americans with Disabilities Act (ADA) standards for accessible design*. Retrieved from <https://www.ada.gov>
9. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific. (2022). *Inclusive tourism development in Asia-Pacific*. Retrieved from <https://www.unescap.org>
10. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *Tourism for all: Promoting accessibility in travel and hospitality*. Retrieved from <https://www.unwto.org>
11. Farmanov, E., Radjabov, O., Davronov, I., Yuldashev, K., Sharipov, B., & Ibragimov, N. (2024). *The necessity of developing mobile applications for people with disabilities*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 138, p. 02001). EDP Sciences.
12. Ibragimov, N., Davronov, I., Yuldashev, K., Radjabov, O., Farmanov, E., & Sharipov, B. (2024). *Inclusiveness of accommodation tools in Uzbekistan and the essence of inclusive tourism*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 141, p. 04044). EDP Sciences.

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN OVQATLANISH MASKANLARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI (BUXORO MISOLIDA)

Abror Turobovich Jurayev

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

Nutfillo Salimovich Ibragimov

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası professori

Kamol Yuldashev Sharifovich

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

e-mail: a.t.juraev@buxdu.uz,

n.s.ibragimov@buxdu.uz,

k.sh.yuldashev@buxdu.uz

Hozirgi kunga kelib zamonaviy moddiy texnikalar rivojlangan bir paytda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqib ular uchun sayohatlarini amalga